AMALIYOTCHI PSIXOLOGLAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xalilova Salomat Nasim qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Kommunikativ kompetentlik tushunchasining mohiyati, uning psixologik faoliyatda tutgan o‘rni va ahamiyati batafsil yoritilgan. Maqolada kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga oid innovatsion yondashuvlar va samarali metodlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixolog, trening, kompetensiya, innovatsiya, strategiya, metod, muvafaqqiyat, motivatsiya, taqdimot, visual.

Kirish

Respublikada psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish to‘g‘risida qator farmonlar o’z ijrosini topmoqda. So‘nggi yillarda jamiyatda olib borilayotgan o‘zgarishlar qatorida psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash, amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda psixologiya sohasini rivojlantirish va aholiga sifatli psixologik xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son qarori: ushbu qaror psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash, aholiga psixologik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va psixologik markazlar tashkil etishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori: mazkur qarorga muvofiq, 2021-2022 o'quv yilida psixologiya yo'nalishlari bo'yicha davlat buyurtmasi asosidagi qabul parametrlari 30 foizga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-noyabrdagi O'RQ-989-son qonuni: "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi ushbu qonun psixologik yordam ko'rsatishning huquqiy asoslarini belgilaydi, psixologlarning majburiyatlari va aholining huquqlarini aniqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-iyuldagi PQ-231-son qarori: ushbu qaror bilan O'zbekiston davlat psixologiya universiteti tashkil etilgan bo'lib, u psixologiya sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan.

Materiallar va usullar

Kommunikativ kompetensiya kelajakdagi psixologning kasbiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki psixologiya fan va kasb sifatida odamlarning aloqasi, o‘zaro ta’siri va tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Bo‘lajak psixolog o‘zining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun samarali muloqot qilish ko‘nikmalari va qobiliyatlariga ega bo‘lishi muhimdir.

Kommunikativ kompetensiya nima uchun bo‘lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining muhim hal qiluvchi omili ekanligining bir necha jihatlari:


1. Ishonchli munosabatlarni o‘rnatish: psixolog mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni o‘rnatishi kerak, bu hamdardlik, tinglash va tushunish qobiliyatini talab qiladi.
2. Sessiyani samarali boshqarish: yaxshi psixolog turli xil aloqa strategiyalari va ko‘nikmalaridan foydalangan holda maslahat va mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazishi kerak
3. Jamoaviy ish: psixolog ko‘pincha boshqa mutaxassislar (masalan, psixiatrlar, ijtimoiy ishchilar, o‘qituvchilar, talabalar) bilan jamoada ishlaydi, shuning uchun samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘lish muhimdir.
4. Tadqiqot o‘tkazish: tadqiqot natijalarini yetkazish, maqolalar, taqdimotlar nashr etish va hamkasblar bilan bilim almashish qobiliyati ham psixologning muvaffaqiyatli ishlashi uchun muhimdir.
5. O‘z-o‘zini bilish va o‘zini rivojlantirish: kommunikativ kompetensiya psixologga o‘zini, uning motivatsiyasini, hissiyotlarini va munosabatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, bu kasbiy rivojlanishning muhim jihati hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya - bu shaxsning yangiliklarni yoki ma’lumotlarni boshqalar bilan aloqalarini o‘rnatish, fikrlarni o‘ziga xos kelgan shaklda izohlab berish va muammolarni hal qilishga muqobil ma’naviy quvvatlarni qo‘llashga ega bo‘lishni ta’minlovchi ko‘nikmalar, umumiy malakalar jamiyatidagi muammolarni o‘rnatishda asosiy rol o‘ynash ko‘nikmasidir [8, 142b]**.**

Amaliyotchi psixologlar uchun kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish juda muhim, chunki ular insonlar bilan bevosita muloqotda bo'lib, murakkab muammolarni hal qilishda yordam berishadi. Quyida ushbu kompetentlikni rivojlantirishga oid asosiy tamoyillar, usullar va strategiyalar keltirilgan:

Amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar ustida ishlashi muhim:

- faol tinglash ko‘nikmalari: mijozlarni tinglab, ularning ehtiyojlari va his-tuyg‘ularini anglash;
- hissiy intellekt: o‘z va boshqalarning hissiyotlarini tushunish va boshqarish;
- notiq va yozma muloqot: aniq, mantiqiy va tushunarli gapirish yoki yozish;
- madaniyatlararo muloqot: turli madaniy va ijtimoiy guruh vakillari bilan samarali muloqot qilish.



2-rasm. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish usul va metodlari

Hissiy intellekt (inglizcha: Emotional Intelligence, qisqartmasi EI yoki EQ) – insonning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalarning hissiyotlarini anglash, boshqarish, tushunish hamda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Bu tushuncha psixologiyada, ijtimoiy fanlarda va shaxsiy rivojlanish sohalarida muhim ahamiyatga ega [2, 26-28b].

Hissiy intellektning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1.O‘z-o‘zini anglash (Self-Awareness) 2.Hissiyotlarni boshqarish (Self-Regulation) 3.Motivatsiya (Motivation) 4.Empatiya (Empathy)5.Ijtimoiy ko‘nikmalar (Social Skills).

Natijalar va ularning muhokamasi

Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish natijalari ko‘pincha ular faoliyat ko‘rsatadigan soha, o‘quv dasturi, va ularga taqdim etilgan o‘quv vositalariga bog‘liq bo‘ladi. Ammo umumiy jihatdan, bunday kompetentsiyalarni rivojlantirish bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Quyida ba'zi asosiy natijalar keltirilgan:

1. Professional ko‘nikmalarning takomillashuvi:

- samarali muloqot qilish: Amaliyotchi psixologlar mijozlari bilan ishonchli va ochiq muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantiradi;

- tushunishni chuqurlashtirish: Kompyutensiyalar rivojlangan psixologlar mijozning ehtiyojlari va muammolarini chuqurroq tushunib, ularga aniq va tegishli yordam bera oladi.

2. Ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish

- empatiya qobiliyati: Komunikativ ko‘nikmalar emotsional barqarorlik va empatiya qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa psixolog va mijoz o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi;

- stressni boshqarish: Psixologlar muloqotdagi stressli vaziyatlarni samarali boshqarishni o‘rganadilar.

3. Ish samaradorligini oshirish

- muloqotning aniqligi: Psixolog o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifoda etib, mijozning xatti-harakatlariga ta’sir o‘tkaza oladi;

- muammolarni samarali hal etish: Yaxshi rivojlangan komunikativ kompetentsiyalar muammolarni tezkor aniqlash va ularni hal qilish imkoniyatini oshiradi.

4. Jamoada ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi:

- hamkasblar bilan hamkorlik: Komunikatsion kompetentsiyalar jamoa bilan ishlashda va boshqa mutaxassislar bilan muloqot qilishda psixologning roli va hissasini oshiradi;

- tarmoq yaratish: Yaxshi muloqot ko‘nikmalari orqali psixologlar o‘z professional tarmog‘ini kengaytiradi.

5. Mijozlarning qoniqishi va ishonchini oshirish - samarali va professional muloqot mijozlar ishonchini qozonishga yordam beradi, bu esa ularning psixologik maslahat jarayonidan qoniqish darajasini oshiradi.

6. O‘z-o‘zini anglash va refleksiya - psixolog o‘zining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, muloqotda qilgan xatolarini tan olib, ulardan saboq olishni o‘rganadi.

Amaliyotchi psixologlarning samarali faoliyat olib borishi uchun kommunikativ kompetentlik muhim ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalar, birinchidan, mijozlar bilan samarali va ishonchli munosabatlar o'rnatish, ikkinchidan, turli vaziyatlarda o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifoda etish, uchinchidan, boshqalarning hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini chuqur anglash qobiliyatini ta'minlaydi [5, 36-38b].

Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tinglash ko'nikmalarini shakllantirish: Faol va empatik tinglash orqali mijozni to'liq tushunish, uning muammolarini aniqlash va tegishli yordam ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.
2. Verbal va neverbal muloqotni rivojlantirish: Nutq madaniyatini oshirish va tana tili (mimika, jestlar, tovush ohangi) yordamida muloqotni to'ldirish orqali mijoz bilan yaxshiroq aloqa o'rnatish.
3. Psixologik qarshiliklarga bardosh berish qobiliyati: Mijozlarning qiyin hissiy holatlari bilan ishlashda tinchlik va bardoshlilikni saqlash qobiliyatini oshirish.

4. Konfliktni boshqarish: Mojaroli vaziyatlarda murosaga erishish va inqirozlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
5. Muloqot etikasiga rioya qilish: Psixologik faoliyatda maxfiylik, hurmat va samimiylik tamoyillariga rioya qilish kommunikativ kompetentlikning ajralmas qismidir.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy muvaffaqiyatga erishishida, mijozlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishda va turli psixologik muammolarni hal qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Kommunikativ kompetentsiya psixologning har qanday kasbiy vazifalariga hamroh bo‘ladi. Kommunikativ kompetentsiyaning rivojlanmaganligi yoki rivojlanishining past darajasi muvaffaqiyatsizlik holatlarining ko‘payishiga olib keladi, kasbdan qoniqishni kamaytiradi va kasbiy motivatsiyani pasaytiradi. Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiya bo‘lajak psixolog mutaxasislarni kasbiy mahoratining asosi sifatida rivojlantirish zarurligi ta’kidlandi.

Adabiyotlar

1. A.Yu.Axmedov. Bo‘lajak psixologlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosini o‘rganishning nazariy asoslari.// Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)(2023)

2. N.A.Muslimov (2007) Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.:. - 349 b. 4. N.X.Qo‘shvaqtov (2006) O‘quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o‘rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006.

5. Yusufovich,A.A.(2022) bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishning dolzarb masalalari.// Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(10), 224-227.

6. Yusufovich A. A., & Alisher o‘g‘li, E. O. (2022). Psychological and pedagogical opportunities for the formation of communicative competence in

future teachers.// Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.

7. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization.// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 302-304.

8. Yusufovich, A. A.Kommunikativ kompetentsiya bo‘lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida.// FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University. 2024//№3.

9. Turakulova M.K., Tukhtaeva Z.Sh., Turakulova B.B.,Muminova M.S. Pedagogical innovation and the use of debate method in teaching technical sciences.// International Engineering Journal For Research & Development. April 2020. Vol.5, Issue 3. Impact factor: 6.03 –151-155 pages.

10. Turakulova M.K., Rakhmonov K.S. Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions.// Asian journal of multidimensional research. 2020. Special issue.

–170-174 pages.

11. Turakulova M.K., Tukhtaeva Z.Sh., Rakhmonov K.S., Hasanova Z.D. Technical creativity of students as a means of improving quality and the process of integrating their professional training.// Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 2021. Vol 25, Issue 3. –7048-7061 pages

12. Turakulova M.K Scientific And Creative Training Of Teachers In The Formation Of Technical Creativity Of Talented Students.// International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. – Malaysia, 2022. –P. 3-6.

13. Turakulova M.K Development of technical creative thinking skills of gifted students// World Bulletin of Social Sciences (WBSS). 2022. Vol. 14. –12-16 pages